

XORAZM LAZGI AFSONASI

**Yo'ldashev Nurbek Jo'rabek o'g'ili**

*YANGIARIQ EDUCATION CENTRS nodavlat ta'lim muassasi 11-sinf o'quvchisi.*

**Abduazim Mutalov**

*Ilmiy rahbar: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti faxriy professori, iqtisod fanlari doktori*

**Annotatsiya:** *Bu maqolada butun dunyoni hayron qoldirib hozirgi kunda ham rivojlanib borayotgan o'zining go'zal va maftunkor raqislari bilan insonlar ko'ngliga o'rnashib olgan Xorazm milliy raqislari va milliy laparchilik qolaversa butun dunyoga o'z dong'ini tarqatgan lazgi haqida g'urur bilan yozmoqchiman. Xorazm farzandi ekanligimdan g'ururlanaman. Xorazm lazgisi yangrar ekan uni eshtib raqishga tushmayotgan insonni topa olmaysiz. Xorazm musiqa uslubining baxshidostonchilar san'ati o'ziga xos bo'lib, alohida o'ringa ega. Dostonning nasriy qismi hikoya, nazmiy qismi esa qo'shiq shaklida ochiq ovozda cholg'u ansambl jo'rligida ijro etiladi.*

**Kalit so'zlari:** *Milliy, doira Mahtumquli, Kolimjon Otaniyozov, lapar, lazgi, nay, doira, suora.*

**Аннотация:** *Данная статья посвящена хорезмийским национальным танцам, покоровшим сердца людей своими красивыми и очаровательными танцами, удивившим весь мир и развивающимся до сих пор, и лазги, распространившим свое слово на весь мир помимо национальный лапаризм. Хочу написать с гордостью. Я горжусь тем, что я хорезмийский ребенок. Не найти человека, который не заплакал бы, услышав песню Хорезма. Искусство музыкального стиля бахсидостанистов Хорезма уникально и занимает особое место. Прозаическая часть эпоса представляет собой рассказ, а поэтическая часть исполнена в форме песни в сопровождении инструментального ансамбля.*

**Ключевые слова:** *Милли, дойра Махтумкули, Колимжон Отаниезов, лапар, лазги, най, дойра, суора.*

**Annotation:** *This article is about Khorezm national dances, which have won the hearts of people with their beautiful and charming dances, which surprised the whole world and are still developing today, and the lazgi, which spread its word to the whole world in addition to national laparism. I want to write with pride. I am proud to be a Khorezm child. You won't find a person who doesn't burst into tears when he hears the song of Khorezm. The art of Bakhsidostanists of Khorezm musical style is unique and has a special place. The prose part of the epic is a story, and the poetic part is performed in the form of a song, accompanied by an instrumental ensemble.*

**Key words:** *Milli, doira Mahtumquli, Kolimjon Otaniyozov, lapar, lazgi, nay, doira, suora.*

## KIRISH

Xorazm musiqa uslubi \_ Xorazm vohasida qaror topgan muayyan musiqiy an'analari majmui. Qadimdan madaniyat va san'at maskani bo'lgan hududda o'ziga xos xalq musiqa ijodiyoti ( bolalar va marosim qo'shiqlari, xalifa laparlari va boshqalar) og'zaki an'anadagi kabi musiqa (doston, talqinchi va g'yandalari san'ati, maqom va boshqalar ) namunalari keng o'rin tutadi. Xorazm musiqa uslubi, doirasida xalq musiqa asrining eng qadimgi davrlaridga mansub kuy ohang namunalari o'z aksini topgan. Jumladan, . Jumladan, bolalar ("Momom moshiydi", "Aravachi mani doyim", "Tuyalar, ho tuyalar" va boshqalar) va mavsum marosim qo'shiqlari ("Suyet xotin", "Ashsha daroz" va boshqalarda musiqaning ilk bosqichlariga oid dastlabki tuzilma va ohang alomatlari, boshlang'ich parda asoslari saqlanib qolgan. Xalifalar san'atida "ichkri"ga xos ixcham diapazondagi past ovoz ko'lamida aytilgan. Bunda qudalar tomonidan to'yga ruxsat berilgandan keyin aytiladigan " Boring boshlang, ong'lar bo'lg'ay to'yinggiz" tuy boshlanishida " Muboraklar bo'lg'ay etgan tuyinngiz" yoki kelin kelgandan keyin " Aylanaman keliinni qaddi bo'yinnan" va boshqa qo'shiqlar to'yning uziga xos shukuhini beradi. Ayniqsa qayroq bilan aytilgan lapar turi xalfa raqqosalariga juda xosdir.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Xorazm, uning kelib chiqishi, rivojlanishi, turli tuman manbaalar arxeologik topilmalar orqali o'rganilgan. Madaniyat va san'atning rivojlanish davrlarini esa "Lazgi"siz tasavvur qilish qiyin. Har bir davrda Lazgi o'zini mukammallashtirib, turlari ko'payib borgan. Raqs hech qachon o'z holicha bir tekis rivojlanmagan. U o'zi qadimdan paydo bo'lgan muhit, xalq hayoti, marosimlari, diniy urf-odatlar va aqidalari bilan chambarchas rivoj topgan. Lazgining qadim tarixi olovning kashf qilinishi bilan bog'liq bo'lib, zardushtiylik diniga borib taqaladi. Zardushtiylikning muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto"da bu haqida yagona ma'lumotlarning borligi olimlar tomonidan ta'kidlangan. Xorazm xalq og'zaki ijodida lazgining yaratilishi haqida turli xil afsona va rivoyatlar bor. Masalan, jonning tanaga kirish jarayonini ifodalishi haqida, iqlimning sovuq bo'lganligi va olov yoqib isinish uchun turli harakatlar orqali raqsning paydo bo'lganligi haqidagi ma'lumotlarni lazgining yaralishiga bog'lashadi. Qadimgi lazgi to'g'risida shunday afsona bor. Inson tanasi dastlab loydan yasilib, alohida-alohida bo'lgan ekan. Jonga "tanaga kir" deb buyuribdilar jon tanaga kirib birdan qo'rqib qaytib chiqadi. "Kir tanaga" deb qayta buyuradilar. U "qo'rqaman" debdi. Shunda ilohiydan bir kuy taralibdi. Bu kuyga maftun bo'lgan jon tanaga qanday kirganini o'zi bilmay qolibdi. Oldin barmoqlariga, panjalariga, bilaklariga, yelkalariga jon kirib, inson tirilibdi. Bu ilohiydan kelgan "Lazgi" kuyi ekan.

Barcha raqs turlarining o'zining ichida bir nechta turlarga bo'lingani kabi "Lazgi" raqsining ham turlari bor. Bu raqsning turlari xalqning urf-odatlar ana'ana-yu marosimlariga qarab shakllanib borgan. O'zbekiston xalq artisti Gavhar Matyoqubova va Jurnalistlar ijodiy uyushmasi a'zosi Sharqiya Eshjonovalarning "Lazgi" nomli

kitobida "Lazgi" raqsining 9 ta turini sanab o'tgan. Shulardan "Masxaraboz lazgi", "Qayroq lazgi", "Dutor lazgi", "Surnay lazgi", "Saroy lazgi", "Changak lazgi", "Xiva lazgi", "Garmon lazgi" kabi turlarini aytish mumkin. Bularning shakllanish davri ham turlicha bo'lgan. Masalan, tosh va temirning bir-biriga urilishi orqali "Qayroq raqsi" ning paydo bo'lishi qadimgi tosh davriga borib taqaladi. Arablar bosqini davrida san'at va madaniyat ustidan kurash daxshatli tus olgan. San'atkor va raqqoslar kuchli tazyiq ostida bo'lishgan. Ayollarga sahnaga chiqib o'yin ko'rsatishi, qo'shiq ijro etishi umuman taqiqlangan. Shunday bo'lsa ham san'at o'z rivojlanish yo'lidan qolmagan. IX-XII asrlar O'rta Osiyoda xalifalikning yemirilishi, yirik feodal davlatlarning maydonga kelishi, shahar hayoti, hunarmandchilikning taraqqiyoti, savdo-sotiq, madaniyat, teatr, musiqa san'atining ayrim ko'rinishlarida tiklanish davri bo'ldi. Birinchilardan bo'lib lazgiga so'z bog'lagan Komiljon Otaniyozovning ham xizmatlari juda katta. Komiljon Otaniyozov yangi yaratgan Komil Xorazmiy so'zi bilan "so'yla manga ey sanam, kimni sevar yorisan, ey qora ko'z gal bari, ey qora ko'z bo'y-bo'y" so'zlariga naqorat qilib yangi lazgi yaratdi. Komiljon Otaniyozov nomidagi "Lazgi" ashula va raqs ansambli o'zbek davlat filarmoniyasi (hozirgi O'zbekiston Davlat Filarmoniyasi) qoshida 1957-yilda tashkil etilgan.

Muhokama. Xorazm musiqa uslubida talqinchi va go'yandalar ijodi aniq bir janr bilan chegaralanmagan bo'lsada, ularning o'z yo'llari va o'ziga xos uslublari mavjud. Ayniqsa, ular suvoralar va ularning savtlari hamda boshqa yirik shakldagi mumtoz, ashulalarni Mashrab, So'fi, Olloyor, Mahtumquli, Mulla Nafas kabi shoirlarning tasavvuf yo'lidagi g'azallari, nasihat hamda o'gitlariga solib kuylaganlar. Shuningdek, musulmonchilikni targ'ib qiluvchi "Kiyiknoma", "Sayid Vaqqos", "Kaptar", "Amir Hamza", "Me'rojnom", "Sultonbobo hikoyati", "Payg'ambarlar hikoyati" kabi nomlarni ham ijod qilganlar. Talqinchi va go'yandalar "Diyralishma" deb nomlangan erkin tanlovlarda sinalgan, ulardan Polli Duzchi, Kalandar Banggi, Qurji ota va boshqa mashhur.

Xorazm vohasida baxshichilik rivoj topishi

593

Baxshi so'zining ma'nosi mo'g'ulcha «baxsha» va «bag'sha»- ustod, ma'rifatchi, sanskritcha «baxshu»-kalandar, darvesh, forscha «baxshidan» so'ziga yaqin bo'lib bag'ishlamoq, in'om qilmoq ma'nosini anglatadi. O'zbekiston hududida baxshi

ijrochiligini o'z hususiyati jihatidan 2 turga bo'lish mumkin.

- 1) Ichki ovoz bilan she'riy shaklda ko'biz yoki do'mbira jo'rligida ijro etish uslubi
- 2) Asosiy matni hikoya va she'riy matni qo'shiq shaklda ochiq ovozda, ko'pincha dutor va tor jo'rligida ijro etish uslubi

Xorazm baxshichilik sa'nati ijro etish uslubi jihatidan ikkinchi toifa ichiga kiritishimiz mumkin. Xorazm xalq dostonlari hajmi boshqa o'zbek xalq dostonlariga qaraganda kichikligi, shu bilan birga ko'proq musiqaviyligi bilan ajralib turadi. Baxshilar bir voqeaga birlashgan dostonlari o'z boshidan kechirganday qilib,

san'atkorlik bilan ijro qilib kelganlar. Baxshilar dutor yoki tor chertib dostonlari yoddan aytganlar. Umuman olganda o'zbek, qozoq, turkman, qoraqalpoq baxshichilik san'ati doston aytish san'ati bir biriga juda ham o'xshab ketadi. Xususan to'ylardan doston aytishuv jarayonlari o'xshashdir. Bunda ikki yoki uch baxshi bir-birlarini yenguncha bir dostonni navbatma-navbat dutor chalib aytganlar. Ba'zan bir to'yda ikki baxshi bir-biriga qarama-qarshi turib doston kuylagan. G'olib chiqqan baxshi yoki jirovni to'y ishtirokchilari qizg'in tabriklagan. Xiva xonlari ham baxshi va jirovlarning aytishuvlarni tashkil qilgan. Xon ko'pincha ko'ngiliga yoqmagan baxshilarni aytishuvda yengilgan hisoblab, yuziga "qorakuya" surkab+ haqorat qilgan. Bunday ko'ngilsiz holatni XIX asrda yashab ijod qilgan qoraqalpoq shoiri va jirovi Kunxo'ja Ibrohim o'z boshidan kechirgan. Shunga qaramay, Xorazm vohasi xalqlari to'y va bayramlarda baxshi va jirovlarning aytishuvlarini katta qiziqish bilan tomosha qilganlar va ularni olqishlaganlar. Bundan tashqari, baxshilar savol-javob tariqasida qo'shiq to'qib kuyga solib ham aytishgan.

Hulosa.

"E'tibor bersangiz, lazgida odamni kayfiyatini ko'taradigan holat va jo'shqinlik bor. Bundan tashqari raqs aynan Avesto davri bilan bog'liq. Shuning uchun ham "Lazgi" O'zbekiston madaniy merosining elementi sifatida Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritilgan" – deya ta'kidladi Hamrayeva.

Gavhar Matoqubova, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva kabi san'at ustalari Xorazm xalq raqslarini mukammallikka olib kelishgan. Gavhar Matoqubova tomonidan xorazm raqslari aynan milliy qadriyatlar, etnografiya bilan bog'lab tahlil qilingani nafaqat o'zbek, balki jahon xoreografiya san'atida ham noyob hodisa hisoblanadi. Xorazm raqsi haqida "Ofatijon lazgi", "Lazgi monografisi", yaqinda o'zbek va ingliz tillarida nashr etilgan "Xorazm Lazgi raqsi tarixi va tavfsifi" kabi kitoblarda batafsil ma'lumotlar keltirilgan. Shunday ekan go'zal va durdona bo'lgan bunday san'at asarini rivojlantirish va uni himoya qilish jahon miqiyosidagi o'rnini yana ham yuqoriga ko'tarib o'z milliy va madaniy merosimizni asrab avaylab kelajak avlodga uni yetqazishimiz bizning burchimizdir o'z millatimiz ko'rki bo'lgan bu lazgi qon qonimida hattoki ruhimizda ham abadiy saqlab qolishimiz uni yuqori cho'qilarga ko'tarishimiz lozim.

Lazgi.

Hay omon-ay omon, omon-ay omon,  
Asiram, benavoyam, beqasam, giriftoram,  
giriftoram omon.

Umrimda gazmaram guli gulzor sayrina,  
Fasli bahor istamaram bulbul o'lmasa,  
Gulzor sayrina naylaram al gul o'lmasa.  
Hey omon...

Hay, g'aniy dog'lar, ga'niy dog'lar,

Qorli bo'lar, qorsiz bo'lmas.  
Yigit boshi eson bo'lsa,  
Molli bo'lar, molsiz bo'lmasey, omon-ay, omon.

Qaysi falak burjining mehri puranvorisan,  
Qaysi sadaf durjining gavhari, shahvorisan?  
Qaysi Xo'tan og'usi, nofai totorisan,  
Qaysi chamanzorning lolai gulnorisan?  
So'yla manga ey sanam,  
Kimning go'zal yorisan?

Olago'z bo'y, bo'y, bo'y,  
Qorago'z bo'y, bo'y,  
Olago'z gal bari, hay,  
Qorago'z gal bari.

Qomatingga bandadur bog' aro sarvi ravon,  
La'li labing rashkidin g'uncha erur bag'ri qon.  
Chunki chaman sahnida bo'lsa yuzing gulnishon,  
Nolasin aylar fuzun bulbuli bexonumon.  
So'yla manga ey sanam,  
Kimning go'zal yorisan?

Hay, olago'z bo'y, bo'y, bo'y,  
Qorago'z bo'y, bo'y,  
Hay, olago'z gal bari, ey,  
Qorago'z gal bari.

Yig'latur oshiqlaring la'li labing xandasi,  
Tubii shamshod erur sarvi qadding bandasi.  
Husni kamol avjining axtari tobandasi,  
Ko'rsa mohi orazing bo'lgusi sharmandasi.  
So'yla manga ey sanam,  
Kimning sevar yorisan?

Olago'z bo'y, bo'y, bo'y,  
Qorago'z bo'y, bo'y,  
Olago'z gal bari, ey,  
Qorago'z gal bari.

Bir kecha aylab manga mehru muhabbat ayon,

Hamrohu yo'ldoshsiz barcha ulusdin nihon.  
Kulbai ehsonima bo'lsang agar mehmon,  
Komili mahzunningga rostini aylab ayon.  
So'yla manga ey sanam,  
Kimning sevar yorisan?

Hay, olago'z bo'y, bo'y, bo'y,  
Qorago'z bo'y, bo'y,  
Olago'z gal bari, ey,  
Qorago'z gal bari.

Olago'z gal bari, hay,  
Olago'z gal bari,  
Olago'z gal bari, hay,  
Qorago'z gal bari. Omon-ay...

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – Toshkent: Sharq, 1998. – 31 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
3. B.Sarimsoqov. "O'zbek marosim folklori" 1986.- 12 b
4. To'ra Klichev «Xorazm xalk teatri»- Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.-99 b
5. S.Tursunov, T.Pardayev. O'zbekistonda baxshichilik san'atining rivojlanish tarixi va tarakkiyot boskichlari.-Toshkent: Tafakkur, 2015.-256-b
6. M. Murodov, N.Saburov. Suz boshi. «Korakuz oyim», "Gulruxpari", Toshkent, Uzbekistan SSR "Fai" nashriyoti, 1967 yil, 4-bet.
7. To'ra Klichev «Xorazm xalk teatri»- Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.-100
8. To'ra Klichev «Xorazm xalk teatri»- Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.-112
9. A.Oblonskiy . Roj deniye turkmenskogo teatra. "Turkmenovedeniye", 1928, № 3, 4, str. 52.
10. Matyoqubov B. "Doston navolari". – Toshkent. "BUILDING PRINT" nashriyoti. –2009,13-b
11. D.Bobajanov ,M.Abdurasulov «Abadiyat Farzandlari» Xorazm, Ma'mun
12. <https://teksty-pesenok.pro/42/Ortiq-Otajanov/tekst-pesni-Lazgi>